

# Jamiyat va boshqaruv

Общество и управление / Society and Administration

2026/1(111)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI  
AKADEMIYASI



Toshkent – 2026



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI  
AKADEMIYASI

# JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

**2026/1(111)**

## OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARNING IJTIMOIY-SIYOSIIY MOHIYATI

**Maxsudjon MANSUROV,**  
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar  
vazirligi akademiyasi katta o'qituvchisi



**Annotatsiya:** maqolada ommaviy tartibsizliklarning ijtimoiy-siyosiy mohiyati kompleks tarzda tahlil qilinib, ommaviy tartibsizliklarning yuzaga kelish sabablari, ularning jamiyat barqarorligiga ta'siri hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligi ochib berilgan. Shuningdek, tartibsizliklarning rivojlanish bosqichlari, ularning xavfsizlik va huquqiy tizimga tahdidi, davlat va jamiyat institutlarining ushbu jarayonlarga munosabati tahlil etilib, tadqiqot natijasida ommaviy tartibsizliklarning oldini olish, ularni boshqarish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** *ommaviy tartibsizliklar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ijtimoiy barqarorlik, siyosiy ishonchsizlik, iqtisodiy tengsizlik, ijtimoiy adolatsizlik, axborot manipulyatsiyasi, norozilik harakatlari, xavfsizlik, huquqiy tizim.*

**Социально-политическая сущность  
массовых беспорядков**

**Махсуджон Мансуров**

Старший преподаватель Академии  
Министерства внутренних дел Республики  
Узбекистан.

**Аннотация:** в данной научной статье комплексно анализируется социально-политическая сущность массовых беспорядков. Раскрываются причины их возникновения, влияние на стабильность общества, а также взаимосвязь с социально-политическими процессами. В качестве основных факторов протестных движений рассматриваются экономическое неравенство, социальная несправедливость, политическое недоверие и информационные манипуляции. Также анализируются этапы развития массовых беспорядков, их угроза безопасности и правовой системе, а также реакция государственных и общественных институтов на данные процессы. В результате исследования разработаны научно-практические рекомендации по предотвращению массовых беспорядков, их регулированию и обеспечению социальной стабильности.

**Ключевые слова:** *массовые беспорядки, социально-политические процессы, социальная стабильность, политическое недоверие, экономическое неравенство, социальная несправедливость, информационные манипуляции, протестные движения, безопасность, правовая система.*

### **The Socio-Political Nature of Mass Disturbances**

**Maxsudjon Mansurov,**

Senior Lecturer at the Academy of the Ministry of Internal Affairs

**Abstract:** this scientific article provides a comprehensive analysis of the socio-political nature of mass unrest. It reveals the causes of their emergence, their impact on societal stability, and their interconnection with socio-political processes. Factors such as economic inequality, social injustice, political distrust, and information manipulation are considered as the main sources of protest movements. The study also examines the stages of development of mass unrest, their threats to security and the legal system, as well as the response of state and public institutions to these processes. As a result, the research develops scientific and practical recommendations for preventing mass unrest, managing them, and ensuring social stability.

**Keywords:** *mass unrest, socio-political processes, social stability, political distrust, economic inequality, social injustice, information manipulation, protest movements, security, legal system.*

Zamonaviy jamiyatda ommaviy tartibsizliklar ijtimoiy-siyosiy hayotning murakkab va ko'p qirrali hodisalaridan biri hisoblanadi. Ular, ko'pincha, jamiyatdagi mavjud muammolar, ijtimoiy tengsizlik va siyosiy ziddiyatlarning keskinlashuvi natijasida yuzaga keladi. Ommaviy tartibsizliklar nafaqat jamoat xavfsizligiga, balki davlat barqarorligiga ham jiddiy tahdid soladi. Bugungi kunda ommaviy tartibsizliklarni ijtimoiy hayotdagi destruktiv ro'lini aniqlashda uning ijtimoiy-siyosiy mohiyatini anglash va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ommaviy tartibsizlik konflikt, ziddiyatlarga asoslangan noroziliklar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ommaviy tartibsizliklar — bu fuqarolarning katta guruhi tomonidan jamoat tartibini buzish, zo'ravonlik harakatlarini sodir etish, davlat organlariga qarshilik ko'rsatish kabi harakatlar majmuasidir [1]. 1989-1990-yillarda SSSR hududida sodir bo'lgan tartibsizliklar, asosan, millatlararo nizolar asosida sodir bo'lgan. Rossiya IIV xodimi yu.f.n. A.Abdulmanovning fikricha: "Aksariyat hollarda ular milliy, irqiy tenglikni qasddan buzish, milliy yoki irqiy adovat yoki nafratni qo'zg'atishga qaratilgan qasddan – milliy sha'ni va qadr-qimmatini kamsitishga qaratilgan harakatlar bilan birga keladi" 2]. Bizning fikrimizcha, ushbu xatti-harakatlarning ortib borayotgan jamoat xavfsizligiga xavfini hisobga olgan holda, ommaviy tartibsizliklarni uyushtirishga qaratilgan usullardan biri sifatida yuzaga kelgan, keyinchalik millatlararo nizolarga aylanib ketadigan, negizida ommaviy tartibsizliklar kelib chiqadigan millatlararo nizodan foydalanish mumkin. Bu kabi xatti-harakatlar ommaviy tartibsizliklar bilan bevosita bog'liq bo'lmagan shakllarda ham namoyon

bo'lishi mumkin. Fuqarolarning dinga munosabatiga ko'ra, milliy, irqiy tenglik va teng huquqliligini buzishning obyektiv tomoni quyidagilardan iborat: a) g'oyalar, qarashlar yoki yozma mahsulotlar (varaqlar, xatlar, murojaatlar va boshqalar) tarqatish; muayyan millat yoki irqqa bo'lgan ishonch va hurmatni susaytiradigan yoki shu millat vakillariga, ularning turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati va boshqalarga nisbatan nafrat, dushmanlik tuyg'ularini uyg'otadigan harakat bo'lib, shu asosda zo'ravonlik harakatlariga undash; b) milliy yoki irqiy mansubligiga, shuningdek, dinga bo'lgan munosabatiga qarab, u yoki bu millatni kamsitish. Ushbu jarayonni O'zbekiston SSR hududida bo'lib o'tgan "Farg'ona voqealari" misolida ham ko'rish mumkin. 1989-yil 7-8-iyun kunlari O'zbekistonning Farg'ona viloyati hududida mesxeti turklariga qarshi millatlararo adovat asosida ommaviy tartibsizliklar ko'tarilgan edi. Farg'ona viloyatida sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar faktlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rilgan jinoyat ishlarini o'rganishlar shuni ko'rsatdiki: "Jinoyat sodir etgan shaxslarning harakatlari 61 foiz holatda talon-taroj qilish, o't qo'yish, vayronagarchilik va shu kabi boshqa harakatlar bilan kechgan ommaviy tartibsizliklarni tashkil etish sifatida kvalifikatsiya qilingan; 94 %da bu – harakatlarning bevosita bajarilishi sifatida; 44 %da – hokimiyatga qurolli qarshilik ko'rsatish bo'lgan" [3]. "Tartibsizliklar sharoitida jinoyat, qoida tariqasida, shafqatsizlik va tajovuzkorlikning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, eng kam himoyalangan fuqarolar, ayniqsa, qariyalar, ayollar va bolalar azoblanadi. Tartibsizliklar haddan tashqari shafqatsizlik, zo'ravonlik, ko'pincha, oddiy hayot sharoitida hech qachon

bunday harakatlarni qilmagan odamlar tomonidan namoyon bo'ladi. Ularda juda ko'p odamlar ishtirok etishi tartibsizlikning paydo bo'lishi va rivojlanishining sirlaridan biri [4]".

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Farg'ona voqealari haqida shunday yozadi: "O'zbek xalqining vijdoni pok. Farg'ona voqealari o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lmadi. Bu voqealarga tuturiqsiz va g'arazli maqsadlarni ko'zlab, kim qanday bo'yoq bermasin, tarix albatta o'zining adolatli hukmini chiqaradi. Xalqimiz hech qachon boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lmagan. Bu qadimiy va hozirgi tariximizdan olingan ko'pgina misollar bilan isbotlangan [5]". Ushbu holatlarni 1990-yil fevral-mart oylarida Toshkent viloyatidagi "Bo'ka va Parkent voqealari"da, "Birlik" norasmiy siyosiy harakati yetakchisi Po'latov Abduraximning "sa'y-harakatlari" natijasi sifatidagi etnik nizolarda ham ko'rish mumkin [6]. Bizning fikrimizga ko'ra, amaliyot shuni tasdiqlaydiki, tartibsizliklar paytida ularning faol ishtirokchilari va tashkilotchilarini aniqlash juda qiyin. Javobgarlikka, asosan, to'polon sodir bo'lgan joyda tasodifan bo'lganlar tortiladi, tashkilotchilar esa, ko'pincha, tartibsizliklar sodir bo'lgan joyda umuman ko'rinmaydi. Ba'zida ommaviy tartibsizliklarga aloqasi bo'lmagan shaxslar javobgarlikka tortiladi. Bu, o'z navbatida, ommaviy tartibsizlik tashkilotchisini aniqlashda vaqtni ko'p oladi, bunday hollarda ommaviy tartibsizlikning turlariga e'tibor berish lozim:

a) jamoat joylaridagi tartibsizliklar – bunday tartibsizlik turli guruhlar yoki sport musobaqalarida muxlislar tomonidan sodir etiladi;

b) ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog'liq

a) tartibsizlik yoki ommaviy tartibsizliklar ijtimoiy-siyosiy muammolar ko'rinishida sodir bo'ladi;

b) individual ko'rinishdagi tartibsizliklar shaxs bilan bog'liq bo'lib, bunday jarayon, asosan, uyushmagan yoshlar orasida sodir bo'ladi.

Ommaviy tartibsizliklar yirik guruhlar tomonidan amalga oshiriladigan, jamoat xavfsizligi asoslariga tahdid soluvchi hamda hokimiyat, muassasa va boshqa tashkilotlar faoliyatini beqarorlashtirishga qodir bo'lgan, birinchi navbatda, zo'ravonlik xarakteridagi turli ijtimoiy xavfli harakatlar yig'indisini o'z ichiga olgan murakkab hodisadir. Ommaviy tartibsizliklarni uch turga ajratib olish maqsadga muvofiq. Bular: ijtimoiy, fanatizm va siyosiy ko'rinishdagi ommaviy tartibsizliklar.

Ijtimoiy ko'rinishdagi ommaviy tartibsizliklar bilan siyosiy ko'rinishdagi tartibsizlik bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularning maqsadlarini ajratib olish va farqlash muhimdir. Ijtimoiy ko'rinishdagi tartibsizlik jamiyatdagi muammo va kamchiliklar, iqtisodiy muammolar asosida yuzaga kelsa-da, uning harakati tarqoq, maqsadi esa aniq hisoblanadi.

Fanatizm ko'rinishidagi ommaviy tartibsizliklarni, odatda, sport musobaqalarida ko'proq uchratish mumkin. Bunda jamoalarga muxlislik qilayotgan odamlar o'rtasida fanatizm tufayli tartibsizliklar kelib chiqadi.

Siyosiy ko'rinishdagi yoki rangli inqiloblar ko'rinishidagi ommaviy tartibsizliklarning maqsadi davlat to'ntarishini amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi. Bunda olomon ko'tarilgandan keyin, aniq yo'l xaritasiga ega bo'lganday harakatlanib, harakat davomida strategik obyektlar, jumladan, aeroportni egallash, o't qo'yish, portlatish, qurol-yaroq va

harbiy texnikaga ega bo'lishga intiladi. Bundan tashqari, ommaviy tartibsizliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni shakllantirish va amalga oshirishda shuni hisobga olish kerakki, zamonaviy sharoitda tegishli guruhlarining noqonuniy xatti-harakatlari siyosiy maqsadlarda tashkil etilib, davlat to'ntarishlarining ajralmas qismiga aylandi. Bunday harakatlarga 2014-yilda Ukraina Respublikasida yuz bergan "Maydan" ommaviy tartibsizliklarini misol qilib keltirish mumkin.

Siyosiy maqsadlarni ko'zlagan ommaviy tartibsizliklarning oldini olish bir vaqtning o'zida konstitutsiyaviy tuzum asoslari va davlat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi. 2010-yilning oxirida Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mintaqasidagi davlatlarda boshlangan "Arab bahori"ni ham misol qilish mumkin. Xususan, Tunis, Misr va Liviyadagi ommaviy tartibsizliklar, shuningdek, Suriyadagi fuqarolar urushining yuzaga kelishi mavjud hukumatga qarshi qaratilgan turli ko'rinishdagi noroziliklarning avj olishi bilan izohlanadi. M.T. Laumulinning ta'kidlashiga ko'ra, qo'zg'olonchilarning maqsadi arab dunyosidagi mavjud siyosiy tuzumni o'zgartirish, demokratik prinsiplarni amalga keng joriy qilish kabi omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, "Arab bahori" voqealarini bevosita tashkillashtirishda ayrim tashqi kuchlarning ta'siri borligi ba'zi mutaxassislar tomonidan e'tirof etilmoqda [7].

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ham 1991-2022-yillar oralig'ida turli ko'rinishdagi ekstremistik guruhlar tomonidan, O'zbekiston Respublikasida milliy yoki irqiy adovat va nifoqni qo'zg'atishga, millat sha'ni va qadr-qimmatini kamsitishga, fuqarolarning tuyg'ularini ularning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq holda haqorat qilishga, shuningdek, huquqlarini bevosita

cheklashga, qasddan qilingan harakatlar sodir etishga urinishlar kuzatilgan, jumladan: 1991-yil 9-dekabrda Namangan viloyatida tarixga "Namangan voqealari" [8] nomi bilan kirgan tartibsizliklarda "O'zbekiston Islom davlatini tuzish"ga urinishlar bo'lgan; 1992-yil 16-yanvarda Toshkent shahridagi "Yoshlik" talabalar shaharchasidagi voqealari [9] – Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU) va Toshkent davlat politexnika universiteti (hozirgi TDTU) talabalari non narxining oshib ketishi bahonasida "Yoshlik" talabalar shaharchasida "Erk partiyasi" yetakchisi Muhammad Solihning "sa'y-harakatlari" natijasida ham ommaviy tartibsizliklar yuzaga kelgan; 2005-yil 13-maydagi Andijon viloyatida sodir bo'lgan "Andijon voqealari"[10]dagi terroristik harakatlar orqali sun'iy olomonni tashkil etish, 2022-yil 1-iyulda bo'lib o'tgan Qoraqalpog'istondagi "Nukus voqealari" [11] yorqin misol bo'lishi mumkin.

Globalashgan axborot asrida bu kabi harakatlar internet jahon axborot tarmoqlari orqali "Master klass" ko'rinishida da'vatlarni kuzatish mumkin. Xususan, OAV nazoratini xususiy sektor yoki chet el investorlari qo'lga o'tib ketishi. Bu omilni Qirg'iziston, Suriya, Tunis kabi davlatlarda kuzatishimiz mumkin. Qirg'izistonda 2000-yilda Aleksandr Kim tomonidan tashkil qilingan "Моя столица – новости" xususiy gazetasi "ommaviy tartibsizlik"larning kelib chiqishida muhim rol o'ynagan [12]. Axborot asrida ma'lumotlarni turli ko'rinishda sharhlash orqali tasavvurni shakllantirishga erishiladi. Markaziy Osiyo davlatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga hukumat va davlat rahbarlarini aybdor qilish "Ozodlik radiosi"ning asosiy faoliyati hisoblanadi. Shu o'rinda, "Eltuz" YouTube

kanallarining ham faoliyatini qo'shish mumkin.

Bugungi kunda "bloggerlik faoliyati" bilan shug'ullanuvchi Sanjar Xo'ja taxallusi bilan tanilgan Sanjar Ikromov (1988-yilda tug'ilgan, YouTubeda – 200 mingdan ortiq, Telegramda – 18,3 ming, Facebookda 29 ming obunachisiga ega) internet jahon axborot tarmoqlari orqali o'zbek auditoriyasiga ijtimoiy-siyosiy, iqtisod va psixologiya mavzularidagi salbiy fikr-mulohazalari bilan davlat va xalq o'rtasidagi munosabatga ishonchsizlik, fitna urug'ini ekishga harakat qiladi.

Blogger Xidrnazar Allaqulov 2002-2004-yillarda Termiz davlat universiteti rektori lavozimida ishlagan. Uning fikricha, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar "amaldagi hukumat tomonidan boshqarilishi va moliyalanishi" tufayli mavjud vaziyatni xalq manfaatiga mos ravishda o'zgartirishga qodir emas. Shu sababdan "haqiqat va adolat qaror toptiradigan" siyosiy partiya tuzishga ehtiyoj tug'ilgan degan vajlarni keltiradi.

Xulosa o'rnida, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "27-iyun Matbuot va OAV xodimlari kuni" munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigidagi: "Bugungi shiddatli davrning o'zi barcha sohalar qatori axborot yo'nalishida ham oldimizga o'ta dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Hozirgi vaqtda yer yuzining turli burchaklarida yuz berayotgan, barchamizni tashvish va xavotirga solayotgan voqealarni hisobga oladigan bo'lsak, global dunyoda axborotlashuv jarayonlarining tahdidli jihatlari ham borligi va ular tobora kuchayib borayotganidan ko'z yumolmaymiz. Dunyoning ayrim mintaq va hududlarida ommaviy axborot vositalari muayyan siyosiy kuchlar qo'lida informatsion urushni avj oldirishga, jamoatchilik

fikrini chalg'itishga, oqni – qora, qorani – oq deb ko'rsatishga xizmat qilayotganini afsus bilan qayd etishga to'g'ri keladi. Axborot makonidagi ustunlik ko'p narsani hal etadigan bugungi murakkab vaziyatda xalqimiz siz, azizlarni demokratik matbuotning asosiy sharti va talabi bo'lgan xolislik, haqqoniylik, milliy manfaatlarimizga sodiqlik kabi prinsiplarga amal qilib, o'z bilim va salohiyati, o'tkir qalami va haroratli so'zi bilan jamoatchilikka ijtimoiy jarayonlar mohiyatini anglab yetishga ko'maklashadigan, ularni buzg'unchi axborot xurujlaridan himoya qiladigan fidoyi insonlar deb biladi" [13], - degan so'zlari bejizga emas. Bloggerlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar uzatilayotgan ma'lumotlarni to'g'ri va

ishonchli manbalar asosida tayyorlashi, lekin bir yoqlama ishlov berilgan provokatsion ma'lumotlarni tarqatishda ulardan ehtiyotkorlik talab etiladi. Buning uchun bloggerlik faoliyatini olib boruvchi fuqarolarimizda vatanparvarlik tuyg'usi kuchli bo'lishi hamda tinchlik oliy ne'mat ekanligini ongli anglashlari zarur. Aslida, ommaviy tartibsizliklarning har qanday shakli jamiyat barqarorligi va xavfsizligiga jiddiy tahdid solishi bilan bir qatorda, fuqarolarning shaxsiy erkinliklari, mulkiy daxlsizligi va huquqlariga ham zarar yetkazadi. Shu bois, bunday xavfli vaziyatlarning oldini olish, ularni barvaqt aniqlash va huquqiy asoslangan aniq mexanizmini yaratish davlat hamda jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

#### Manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 244-moddasi. – T.: Adolat. – 2023.
2. Абдульманов А. Уголовно-правовые меры борьбы с массовыми беспорядками. Диссертация. –19 стр. – Москва, 1994.
3. Бюллетень Верховного Суда Республики Узбекистан.1991. No4. – С.11.
4. Антонян Ю.М. Преступления, совершенные с особой жестокостью // Государство и право.№ 9, Москва, 1992.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 7. (Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг 1989 йил 19 августдаги XVI пленумида сўзлаган нутқидан).
6. Эргашев Қ.Э., Замонов А.Т. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2013. – 58-62 б.
7. Лаумулин М.Т. «Арабская Весна» 2011 года: социально-политические изменения на Арабском Востоке и их международные последствия. – Алматы: КИСИ, 2011.
8. <https://mover.uz/watch/flJnH4i>
9. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Toshkentdagi\\_talabalar\\_qo'zg'oloni](https://uz.wikipedia.org/wiki/Toshkentdagi_talabalar_qo'zg'oloni)
10. Алматов З., Сатторов А. Ортда қолган таҳликали кунлар. –Тошкент, 2022. – 70-74 б.
11. <https://www.xabar.uz/mahalliy/nukus-voqealari-oliy-sudda-korilgan-appelyaciya-ishida-yana>
12. Гриняев С.Н., Арзуманян Р.В., Воробьев А.В., Аньшина Е.В., Кравченко В.Ю., Медведев Д.А. Иррегулярные конфликты: «цветные революции». Анализ и оценка форм, приемов и способов ведения операций по смене режимов в суверенных государствах / Под общ.ред. С.Н. Гриняева. – М.: АНОЦСОиП, диссертация – 2015. – С.79.
13. Мирзиёев Ш. “27 июнь Матбуот ва ОАВ ходимлари куни” муносабати билан йўллаган байрам табриги. – Тошкент, 2023.